Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 16-sentabr 2026-yil

YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA UNDA KUTUBXONALAR FAOLIYATINING AHAMIYATI

Shakarbekova Aynur Nursait qizi

Toshkent shahar “Bilim” axborot-kutubxona markazi

Elektron resurslardan foydalanish va o‘quv zallari xizmati, axborot-kutubxona texnologiyalari bo‘yicha bosh mutaxassis

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va raqamlashtirish davrida yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini shakllantirish masalasi hamda bu jarayonda kutubxonalarning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Jamiyat hamda jahon miqyosida yoshlar tarbiyasida to‘g‘ri, xolis va xavfsiz axborotning ahamiyati, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot-kutubxona markazlarining transformatsiya jarayonlari, raqamli resurslar, mediasavodxonlikni oshirishdagi yangicha yondashuvlari va ularning yoshlar ijtimoiy-intellektual rivojlanishiga ta’siri asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot madaniyati, axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik, kutubxona, axborot-kutubxona resurslari, raqamli kutubxona, yoshlar tarbiyasi, feyk xabar, zamonaviy jamiyat.

Kirish

Bugungi tezkor va intellektual texnologiyalar asrida axborot jamiyat rivojining asosiy drayveri hamda strategik resursiga aylandi. Axborot oqimlarining mislsiz darajada kengayishi va raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga chuqur kirib borishi inson hayoti hamda turmush tarzini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, tahliliy fikrlash qobiliyati shakllanish bosqichida bo‘lgan yoshlar qatlami uchun axborot makonining ta’siri va o‘rni beqiyosdir. Zamonaviy sharoitda yoshlar faqatgina axborotni iste’mol qiluvchi emas, balki uni yaratuvchi hamda tarqatuvchi faol sub’ektlarga aylanmoqda. Shu sababli, yoshlarda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot iste’moli madaniyatini

yuksaltirish va bu jarayonda an’anaviy hamda zamonaviy institut bo‘lmish kutubxonalar faoliyatini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi **[4]**.

Tadqiqot maqsadi: Zamonaviy axborot makonida yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy omillarini tadqiq etish hamda ushbu jarayonda kutubxonalar faoliyatining o‘rni va istiqbolli yo‘nalishlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- Yoshlar tarbiyasida va shaxs rivojida to‘g‘ri hamda xavfsiz axborotning o‘rnini belgilash;
- Axborot madaniyati va mediasavodxonlik tushunchalarining mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berish;
- Axborot xurujlari hamda "feyk" xabarlar sharoitida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish usullarini ko‘rib chiqish;
- Zamonaviy kutubxonalarning axborot-resurs markazi sifatidagi transformatsiyasini tahlil qilish;
- Axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirish va yoshlarni kutubxonalarga jalb etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.



Metodologiya. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, mantiqiy hamda qiyosiy-qiyosiy tahlil, pedagogik va sotsiologik yondashuvlar, shuningdek, axborot jamiyati nazariyasi prinsiplaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini o‘zbek va xorijiy olimlarning kutubxonashunoslik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mediapedagogika hamda sotsiologiya sohasidagi ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Yoshlar tarbiyasida axborot va axborot madaniyatining ahamiyati

Axborot madaniyati — bu shaxsning axborotga bo‘lgan ehtiyojini anglash, uni izlash, saralash, baholash, qayta ishlash hamda axloqiy va huquqiy me’yorlarga amal qilgan holda tarqatish bo‘yicha bilimlari va amaliy ko‘nikmalari majmuidir **[1]**.

Globallashuv davrida jahon miqyosida sodir bo‘layotgan murakkab geopolitik jarayonlar va "axborot urushlari" sharoitida to‘g‘ri va xolis axborotni soxta hamda chalg‘ituvchi ma’lumotlardan ajrata olish o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar

internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar va turli media-platformalarning asosiy foydalanuvchilari bo‘lganliklari sababli, destruktiv g‘oyalar hamda noto‘g‘ri ma’lumotlar ta’siriga eng ko‘p beriluvchi xavf guruhini tashkil etadi.

To‘g‘ri axborot shaxsda:

- Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- Dunyoqarashni kengaytiradi va mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi;
- Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi;
- Raqamli makonda xavfsiz va mas’uliyatli harakat qilish madaniyatini paydo qiladi **[6]**.

Axborot xavfsizligi va mediasavodxonlik: zamonaviy chaqiriqlar

Bugungi kunda jahon jamiyatida "kiberbullying", "feyk nyus" (fake news), "deepfake" texnologiyalari va manipulyativ axborot vositalari orqali insonlar, ayniqsa, yoshlar ongini nazorat qilish va ularni muayyan maqsadlarga yo‘naltirishga bo‘lgan urinishlar ortib bormoqda. Bunday tahdidlarga qarshi faqat ma’muriy taqiqlar orqali emas, balki yoshlarning axborot madaniyati hamda mediasavodxonligini yuksaltirish orqali samarali kurashish mumkin. Mediasavodxonlik yoshlarga axborotning manbasini va xolisligini tekshirish (fact-checking), mualliflik huquqiga rioya qilish va axborot xurujlaridan vaqtida himoyalanish imkonini beradi **[5]**.

Kutubxonalar faoliyati: An’anaviylikdan raqamli davrga transformatsiya.

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishda ta’lim muassasalari bilan bir qatorda axborot-kutubxona markazlari yetakchi o‘rin tutadi. Zamonaviy kutubxona endilikda shunchaki kitob saqlash va berish maskani emas, balki ochiq axborot makoni, ta’lim hamda madaniyat markaziga aylanmoqda.

Kutubxonalarning axborot madaniyatini oshirishdagi asosiy funksiyalari:

- **Axborot va navigatsiya funksiyasi:** Kutubxonachilar foydalanuvchilarga nafaqat bosma kitoblar, balki ishonchli elektron ma’lumotlar bazalari, ilmiy indekslar (Web of Science, Scopus va b.) va elektron kutubxonalardan unumli foydalanishni o‘rgatadi.
- **Ma’rifiy va ta’limiy funksiya:** Kutubxonalarda mediasavodxonlik, axborot izlash ko‘nikmalari va raqamli savodxonlik bo‘yicha maxsus treninglar, master-klasslar hamda

seminarlar tashkil etiladi **[3].**

• **Kritik fikrlashni shakllantirish:** Kitobxonlikni targ‘ib qilish hamda ilmiy-adabiy muhokamalarni yo‘lga qo‘yish orqali yoshlarda manbalarga tanqidiy yondashuv qaror topadi.

• **Ijtimoiy-madaniy funksiya:** Kutubxonalar yoshlar uchun erkin muloqot, ijodiy hamkorlik va g‘oyalar almashinuvi maydonchasi (coworking markazlar) rolini o‘ynaydi.

O‘tkazilgan tahlillar va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarda axborot madaniyatini rivojlantirish jarayonida kutubxonalar faoliyati samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi:

Ko‘rsatkich yo‘nalishi	**An’anaviy kutubxona yondashuvi**	**Zamonaviy axborot-kutubxona yondashuvi**
Resurslar turi	Asosan bosma adabiyotlar va kataloglar	Elektron bazalar, media-resurslar, bosma fond
Xizmat ko‘rsatish shakli	Zal ichida yoki abonement orqali kitob berish	Masofaviy (onlayn) xizmatlar, interaktiv vositalar
Foydalanuvchi roli	Passiv kitobxon / axborot oluvchi	Faol izlanuvchi / axborot yaratuvchi
Kutubxonachi faoliyati	Kitob saqlovchi va tartibga soluvchi	Axborot bo‘yicha gidd (navigator), media-instruktor

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kutubxonachining roli shunchaki kitob berishdan yoshlarga axborot ummonida to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi navikatorlik va instruktorlik darajasiga ko‘tarilmoqda.

O‘zbekistonda axborot-kutubxona sohasidagi islohotlar

Mamlakatimizda axborot-kutubxona tizimini rivojlantirish hamda aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni, Prezident farmon va qarorlari ushbu sohani zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish uchun huquqiy va tashkiliy zamin yaratdi.Respublikamizdagi Alisher Navoiy

nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va hududiy axborot-kutubxona markazlari tomonidan milliy va xalqaro elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlarining kengaytirilishi yoshlarning ilmiy hamda ta’limiy ehtiyojlarini qondirishda muhim o‘rin tutmoqda [**2**].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, globallashuv asrida yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jamiyatning ma’naviy hamda milliy xavfsizligini ta’minlashning muhim shartidir. Kutubxonalar ushbu jarayonda axborotning ishonchliligini ta’minlovchi, yoshlarda tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlikni rivojlantiruvchi yetakchi muassasa bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot-kutubxona markazlarining yoshlar bilan ishlash samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi **tavsiyalar** ilgari suriladi:

1. **Raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish:** Barcha tuman va shahar axborot-kutubxona markazlarini yuqori tezlikdagi internet hamda zamonaviy kompyuter texnikasi bilan to‘liq ta’minlash, xalqaro ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazalariga (EBSCO, Springer va b.) obuna imkoniyatlarini kengaytirish.

2. **Mediasavodxonlik markazlarini tashkil etish:** Kutubxonalar huzurida yoshlar uchun axborot xavfsizligi, feyk xabarlarni aniqlash va fakcheking (fact-checking) bo‘yicha doimiy maxsus kurslar hamda treninglarni yo‘lga qo‘yish.

3. **Kutubxona xodimlarining malakasini oshirish:** Axborot-kutubxona mutassislarining raqamli savodxonlik, media-pedagogika va zamonaviy ICT-ko‘nikmalarini doimiy oshirib borish tizimini takomillashtirish.

4. **Interaktiv va jozibador shakllarni joriy etish:** Yoshlarni jalb etish uchun kutubxona makonida klining, kovorking (coworking) hududlari, intellektual klublar hamda virtual kutubxona ilovalari (mobile apps) faoliyatini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гендина Н. И. Формирование информационной культуры личности в библиотеках и образовательных учреждениях. – Москва: Школьная библиотека, 2018. – 288 с.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi PQ-4353-son Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

3. Berdiyeva Z. Sh. Axborot-kutubxona faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 142 b.

4. Umarov A. A. Zamonaviy jamiyatda axborot madaniyati va uning rivojlanish omillari. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021. – 184 b.

5. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 208 p.

6. Abdullayeva M. H. Yoshlar tarbiyasida mediasavodxonlik va axborot xavfsizligi masalalari // Pedagogika va psihologiya jurnali. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 45–50.

